

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Jurakulova Dildora Ziyadullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrası dotsenti, ps.f.n.

Obidjonova Shahzoda Nurillaevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola oliy ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning psixologik jihatlari haqida fikrlar shakllangan bo'lib, talaba shaxsining shakllanishida ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, o'zini nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, mustaqil bilim olish, kasbiy tayyorgarlik, muvaffaqiyatsizlik, norma va talab, nazorat qilish, malaka, ko'nikma, estetik qobiliyat, ijodiy faoliyat.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические аспекты организации самостоятельной работы в процессе профессиональной подготовки студентов высших учебных заведений, утверждается, что самостоятельность и самоконтроль в системе образования являются одним из основных факторов формирования личности студента.

Ключевые слова: Студент, самостоятельное обучение, профессиональная подготовка, неуспеваемость, нормы и требования, контроль, компетентность, умения, эстетические способности, творческая деятельность.

Mustaqillik – shaxs xarakterining ijobiy xususiyatlaridan biri bo'lib, inson tafakkuri tizimida, turli ko'rinishdagi faoliyat va harakatlarida aks etadi. Mustaqillik tushunchasi inson oldida turgan vazifalarni hal etish yo'llari va vositalarini tanlashdagi mustaqillik to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liqdir.

Inson hayotining har bir davrida uning mustaqillik darajasi o'ziga xos namoyon bo'ladi. Mazkur mustaqillik darajasi insonning rivojlanish sharoitlariga va zaruratga bog'liq holda yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish-talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Mustaqil o'qib, bilim orttirish jarayoni talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishi demakdir. Pedagogika va psixologiya ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavr talabalarining mustaqil ta'limi kasbiy-pedagogik faoliyatga muvofiq mehnat natijasining samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi. Bunda talabalarning o'z mehnati natijalarini tahlil etib, o'z kasbiy pedagogik

faoliyati mazmunini aniqlaydi. Pedagogika va psixologiya ta'limi talabalarining mustaqil ta'lim olishidan asosiy maqsadi o'z kasbiy pedagogik malakasini oshirish, kasbiy faoliyatida yuqori yutuqlarga erishishdan iborat.

Mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtirish uchun talabalarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish zarur:

- mustaqil ta'lim olishga ishtiyoq (motiv);
- mustaqil ta'lim olish malaka va ko'nikmalari;
- mustaqil ta'lim olish layoqati.

Mustaqil ta'lim olishga faol rag'bat uyg'otuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- mustaqil faoliyatga bevosita faol qiziqish;
- axloqiy estetik va ruhiy qoniqish motivlari.

Bilish ehtiyojlari rivojlanishining bosqichlari quyidagilar:

- elementar ilmiy tadqiqot faoliyati yo'nalishi bosqichi (tashqi taassurotlarga ehtiyojni shakllantirish);

- olamni bilishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish bosqichi;


- bilish usulini egallash faoliyati sifatida mashq qilish ehtiyojini shakllantirish bosqichi;

- bilish ehtiyojlarini tanlashga yo'nalganligini shakllantirish bosqichi;

- mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish bosqichi.

Ayniqsa, so'nggi bosqich tadqiqot ishi uchun ahamiyatli hisoblanadi. Chunki mustaqil tahsil olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish talabalarning yetuk, barkamol, o'z yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida *mustaqil bilim olish, nazorat qilish* mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga ehtiyojni shakllantirish lozim.


Psixolog olim A.Maslou tadqiqotiga ko'ra inson ehtiyojlari piramidasida ushbu masalaga ijodiy yondoshilganligini ko'rishimiz mumkin [1].



1.1 - rasm. Inson ehtiyojlari piramidasi

Ushbu piramidadan ko'rinib turibdiki, inson ehtiyojlari yuqorilagan sari u barkamollikka intilib boradi (1.1-rasm). Yetuklikka erishish uchun esa talabalarda faollik, mustaqillik, qiziquvchanlik xususiyatlari kamol topishi kerak. Bundan tashqari, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari o'zlarining amaliy faoliyatida ish qobiliyatining pasayishi, charchash, holdan toyish, mehnat qilish, dam olish tartibi kabi jarayonlarga duch keladi. Shuning uchun bo'lajak Tarbiya fani o'qituvchisi mehnat gigienasi va fiziologiyasi bo'yicha ma'lum bilim va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

Talabalar mustaqil ta'lim olish bilan shug'ullanishlari uchun ularda mustaqillik, faollik va qiziquvchanlik xususiyatlari shakllangan bo'lishi kerak (1.2 - rasm). Bu uch xususiyat o'zaro aloqadorlikda va mutanosiblikda mustaqil ta'limga undovchi xususiyatlar hisoblanadi. Mustaqillik bunda talabalarning muammoni hal qilishga, mavzuni o'rganish va amaliy vazifalarni bajarishlariga mustaqil holda ijodiy yondoshishlari tushuniladi. Faollik bunda talabalarning jarayonlarga faol, ishtiyoq bilan kirishishlari tushuniladi. Qiziquvchanlik bunda talabalarning bilim olishga, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga qiziqish, intilish bilan yondoshishlari tushuniladi.



1.2 - rasm. Mustaqil ta'lim olishga undovchi xususiyatlar

Talabalarning mustaqil faoliyati quyidagi belgilarga ega:

- mustaqil fikr yuritish va unga intilish;
- har qanday shart-sharoitda yoki vaziyatlarda bajariladigan ish ob'ektini aniqlay olish;
- yangi vazifalarni hal etishda o'z yondashuvini amalga oshira olish;
- egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni nafaqat tushunishni, o'rganishni istash, balki ushbu bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishning tez, samarali usullarini izlab topish;
- bajarilgan ishlarni tahlil qilishda tanqidiy yondashuv;
- o'z g'oya va qarorlarining erkinligi.

Bo'lajak Tarbiya fani o'qituvchisi bilim va malakalarini oshirishi uchun aniq manbani mustaqil o'zlashtirishga o'z kuchini jalb qilishi kerak, shundagina u kasbiy amaliy faoliyatida yuqori darajalarga erishishi mumkin.

Ma'lumki, talabalar ta'lim olish jarayonida o'zlarida bilim olishga ijodiy munosabatlarni shakllantirishlari, dars materiallarini yuqori darajada o'zlashtirishlari kerak.

Buning uchun xohish-istakning o'zi kamlik qiladi, vaholanki, bugungi kunda o'quv-metodik materiallar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yetarli darajada emas. Pedagog olim V.P.Bespalko bu masalaga o'z e'tiborini qaratib "Agar darslik tarbiyaviy vazifalarga befarq tuzilgan bo'lsa, o'quvchilarni o'z dunyoqarashlarini mustaqil shakllantirishga umuman o'rgatib bo'lmaydi. Agar darsliklarda o'quvchilarning ijodiy sifatlarini shakllantirishning tarbiyaviy maqsadlari, bunga erishishning yo'nalishlari ko'rsatilmagan bo'lsa, o'quvchilarga o'zlarida ijodiy xislatlar, qobiliyatlarni shakllantirishni taklif qilib bo'lmaydi. O'z navbatida, o'quvchilardan dars materiallarini yuqori-ilmiy darajada o'zlashtirishlarini ham kutib bo'lmaydi",- deb ta'kidlaydi [2].

Masalani to'g'ri hal etish talabalarning yosh hamda individual xususiyatlarini, shuningdek, o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari, ma'naviyati, tarbiyalanganlik darajasi pedagogik, kasbiy kamoloti va hakovzolari aniqlashga ham bog'liq bo'ladi. Talabalarning ongli mustaqilligi ushbu motivlar – intilish – qiziqish – faol ongli

faoliyat – unga bo'lgan ehtiyoj egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash tartibida shakllantiriladi [3].

Mustaqil bilim olish ehtiyojlarining rivojlanishi sub'ektni faolikka undaydi va shu bilan birga uning oldiga bilim va malakalarni egallash vazifasini qo'yadi. Mustaqil bilim olish qanday bo'lishi kerak degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: o'qituvchi va talaba hamkorligidagi faoliyatning yakuni oldindan aniq bo'lgan o'qitish jarayonidan farqli ravishda, mustaqil bilim olishda sub'ekt aniq bo'lmagan va oldindan rejalashtirilmagan natijani qayd etishi kerak, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalarning aniq hajmini o'zlashtirishi kerak.

Talabalarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda mustaqil ta'lim olish, ya'ni avtodidaktika (avtodidaktika – o'z-o'zini o'qitish va avtonomlik) tamoyili hamda inson ehtiyojlari piramidasidagi o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyoji o'zaro aloqadorligini ko'rishimiz mumkin [4].

Avtodidaktika – bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish, tushunchalar, ko'nikma va malakalarni hosil qilish yo'lida o'quv jarayonining sub'ektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom xususiyatga ega faoliyatni tashkil etish sanaladi. Avtodidaktika tamoyilining muhim elementlari bo'lgan «mustaqil ta'lim olish», «o'z-o'zini tarbiyalash» hamda «mustaqil o'qish» kabi tushunchalar aniq maqsad asosida muntazam, uzluksiz tashkil etiluvchi, mustaqil va individual faoliyat mazmunini ifodalashga xizmat qilishi qayd etib o'tildi [4].

Mustaqil bilim olish texnologiyasi va mustaqil bilim olish ehtiyojlari bir-biri bilan bog'liqdir: aniq natijaga erisha olishiga ishonmaslik talabani mustaqil bilim olishdan ko'nglini sovitadi. Mustaqil bilim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko'zda tutadi. Ulardan eng muhimi mustaqil muntazam bilim olish maqsadini aniqlay olishdir. Bo'lajak Tarbiya fani o'qituvchilarining mustaqil va ijodiy ravishda bilim olish qobiliyatiga egaligini ko'rsatuvchi **omillar** sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mustaqil ravishda turli qo'shimcha manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtirish orqali o'zida mustaqil ta'lim olish amaliy ko'nikma va malakalarini hosil qilish;
- qo'shimcha adabiyotlardan o'zlashtirgan bilim, egallagan amaliy ko'nikma va malakalardan mashg'ulot jarayonida unumli foydalanish;
- olgan bilimlarni darsda va hayotda turli masalalarni hal etish amaliyotida mustaqil qo'llay olish.

Agar talabadan kutilmagan holda topshiriqlarni mustaqil bajarish talab etilsa, u topshiriqlarni bajara olmasligi mumkin. Natijada talaba o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Bunday holat sodir bo'lmasligi uchun dastlab topshiriqlarni shu tahlilda berish kerakki, bunda sub'ekt topshiriqning biror qisminigina mustaqil bajarsin, so'ngra o'qituvchi bilan birgalikda natijalarning to'g'riligini tahlil qilib chiqsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гамезо М.В., Домашенко И.А. Атлас по психологии: Информ-метод.пособие к курсу Г18 «Психология человека» - М.: Педагогическое общество России, 2003. - 276 с.

2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИППО, 1995. – 336 с.
3. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Avtoref. dis. ... ped.fan.dokt. – T.:1998. – 42 b.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. - 128 b.